TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1364
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI	1370
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	1377
Sonaev Sanjar Nurmamatovich	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI	1382
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH	1387
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI	1394
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR	1397
B.Yu.Maxsudov	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI	1402
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1408
Tashov Mizrob Maxmudovich	



TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Tashov Mizrob Maxmudovich

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros
xalqaro universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Jahon xo‘jaligida turizmni tez sur‘atlar bilan rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishdagi rolini keskin oshirish maqsadida sohaga investitsion resurslarni faol jalb etish, makro va mikro darajalarda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsiya va investitsiyalarni rag‘batlantirish hamda ularni tarmoq yuksalishining yetakchi omiliga aylantirish, mazkur sohadagi o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash, innovatsion faoliyatni faollashtirish dastaklarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishga oid ilmiy tadqiqotlarga e‘tibor tobora kuchayib, dolzarblashib bormoqda. Muallif mazkur maqolada turizm sohasida DXSh ishtirokida investitsiya va innovatsiyaning integratsiyalashgan modelini amalga oshirish mexanizmi bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar: turizm, investitsiya, innovatsiya, davlat, mexanizm, strategiya, normativ-huquqiy, xususiy sheriklik, “Public Private Partnership”, subsidiya, franshiza.

Abstract. In order to rapidly develop tourism in the global economy and significantly increase its role in addressing socio-economic challenges, there is a growing need to actively attract investment resources to the sector, improve the efficiency of their use at the macro and micro levels, stimulate innovation and investment, and transform them into key drivers of sectoral growth. This also requires identifying current development trends, designing mechanisms to activate innovative activities, and implementing them in practice. In this article, the author develops scientific and practical proposals and recommendations on the mechanism for implementing an integrated investment and innovation model with the participation of Public-Private Partnerships (PPP) in the tourism sector.

Keywords: tourism, investment, innovation, state, mechanism, strategy, regulatory framework, private partnership, Public Private Partnership, subsidy, franchise.

Аннотация. Для ускоренного развития туризма в мировой экономике и существенного повышения его роли в решении социально-экономических проблем возрастает и становится актуальной необходимостью активного привлечения инвестиционных ресурсов в отрасль, повышения эффективности их использования на макро- и микроуровнях, стимулирования инноваций и инвестиций и превращения их в ведущий фактор роста отрасли, выявления тенденций развития, разработки механизмов активизации инновационной деятельности и их практической реализации. В данной статье автором разработаны научно-практические предложения и рекомендации по механизму реализации интегрированной модели инвестиций и инноваций с участием государственно-частного партнёрства в туристической отрасли.

Ключевые слова: туризм, инвестиции, инновации, государство, механизм, стратегия, нормативно-правовое регулирование, частное партнёрство, «ГЧП», субсидирование, франчайзинг.



KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti hayotimizning turli jabhalarida sodir bo'layotgan doimiy o'zgarishlar natijasida shakllanmoqda. Mazkur o'zgarish va yangiliklarning asosiy vositasi sifatida innovatsiyalar jahon maydoniga chiqmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va barqarorligini oshirishda innovatsiyalarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonun¹ qabul qilingan. Qonunning 10-moddasi "Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish" deb nomlanib, unda "Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar uchun zarur huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, innovatsion loyihalar hamda yangi ishlanmalarni moliyalashtirish maqsadida amalga oshiriladi" [1], deb keltirilgan.

Mazkur qonunda davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning quyidagi yo'nalishlari belgilab berilgan:

- innovatsion rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;
- innovatsion faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- innovatsion faoliyat subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berish;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan innovatsiyalarni yaratishga oid davlat buyurtmalarini bajarish;
- ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulotlar va ilg'or texnologiyalarning kafolatlangan tarzda joriy etilishini ta'minlash maqsadida ularning davlat xaridlarini tashkil etish;
- innovatsion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish;
- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'larini jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, davlat-xususiy sherikligi tushunchasi ingliz tilidagi "Public Private Partnership" (PPP) atamasiga mazmunan mos keladi. Bunda ikki tomonning hamkorlik munosabatlari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida shakllanishi zarur bo'lsa-da, uni boshqa munosabatlar shakllaridan ajratib turuvchi asosiy jihat davlatning bevosita ishtiroki ekanligini tan olish lozim.

DXShning konseptual asoslari J.M. Keyns asarlarida yoritilgan bo'lib, unda pul-kredit siyosati, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali uy xo'jaliklari daromadlarining tez sur'atlar bilan o'sishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan [2]. Keyinchalik "farovon davlat" nazariyasi shakllandi, uning asoschilaridan biri Dj.K. Gelbreyt hisoblanadi.

DXSh mohiyatiga oid tadqiqotlarning rivojlanishi K.R. Makkonell va St.L. Bryularning asarlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, "raqobat muhitining shakllanishi uchun davlatning beshta iqtisodiy funksiyasidan foydalanish mumkin: 1) ijtimoiy muhit va qonunchilik asosini qo'llab-quvvatlash; 2) sog'lom raqobatni ta'minlash; 3) foyda va moddiy ne'matlarni taqsimlash; 4) resurslar taqsimlanishini nazorat qilish; 5) iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash" [3]. Ushbu konseptual asoslarni hisobga olgan holda davlat va xususiy tadbirkorlikning hamkorlik munosabatlari shakllanishining ustuvor yo'nalishlari asoslab beriladi. Bunda davlat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati sifatida namoyon bo'ladi [4].

Shuningdek, mazkur muammolarni amalga oshirishda davlat faoliyatining samaradorligi qo'shma loyihalarni realizatsiya qilishga xususiy tadbirkorlikni jalb etish zarurligi bilan asoslanadi. Bunday hamkorlikda tadbirkorlik subyektlarining manfaatdorligi barqaror daromad olish va iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

"Davlat-xususiy sherikchilik" kategoriyasining ta'rifida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlik alohida ta'kidlanadi. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinishi zarur [5].

O.A. Romanovanning yondashuviga ko'ra, "DXSh – bu muhim loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli ittifoqdir. Bunda davlat xususiy biznes bilan ittifoq tuzish orqali nafaqat

1 <https://lex.uz/docs/-4910391>



budjet yukini kamaytiradi, balki samarali loyihalarni boshqarish tizimini ham shakllantiradi, biznes esa muayyan kafolatlar va imtiyozlar majmuasiga ega bo'ladi" [6].

Ba'zi adabiyotlarda esa "DXSh – bu davlat va xususiy shaxslar o'rtasidagi uzoq muddatli rasmiy munosabatlar bo'lib, unda har ikkala tomon ham fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida aniq maqsadlarga erishish uchun resurslarni birgalikda investitsiya qilishi" sifatida ta'riflanadi [7].

I.E. Bolexovning "Hamkorlikdagi harakatlar maydoni. Davlat-xususiy sherikligi innovatsion iqtisodiyot belgisi sifatida" nomli asarida DXSh "davlat idoralari va xususiy biznesning o'zaro ittifoqi bo'lib, uning maqsadi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib, mamlakat miqyosida yoki uning alohida hududlarida xizmatlar ko'rsatishga qadar ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirishdan iborat" ekani ta'kidlanadi [8].

Ammo olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasini investitsiyalashda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, turizmning innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, innovatsion va investitsion rivojlanishning strategik yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, turizm sohasiga innovatsiyalarni jalb etishda DXSh munosabatlarini rivojlantirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur muammoga bag'ishlangan adabiyotlar ham kam nashr etilgan bo'lib, bu holat ushbu tadqiqot doirasida mazkur masalaga ilmiy yechim berish zaruratini keltirib chiqardi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda turizmni innovatsion asosda rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati tahlil qilindi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish hamda tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasini investitsiyalash borasida undagi innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish lozim, deb topdik. Ushbu yo'nalishda bir qancha mahalliy iqtisodchi olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, B.Sh. Safarov milliy turistik xizmatlar bozorida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilarni kiritgan: turizm industriyasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarni tayyorlash;

- fuqarolarning dam olish huquqlarini, sayohat qilishda harakatlanish erkinligini ta'minlash;
- turistik resurslardan samarali foydalanish va ularni saqlash;
- bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamining turizmdan foydalanish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- turizm industriyasini innovatsion rivojlantirishga tegishli mablag'larni jalb qilish;
- turistik xizmatlar bozorida tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- turistlar xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mulki himoyasini ta'minlash;
- turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish [9].

B.Sh. Safarov turistik faoliyatni makroiqtisodiy darajada davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlari, turizm xizmatlari bozorida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining funksiyalari, sohani davlat tomonidan boshqarish va qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hamda uning ishlash elementlariga alohida urg'u bergan.

Demak, turizm sohasini rivojlantirishning innovatsion yo'lga o'tish quyidagilarni talab etadi: tizimli yondashuv; innovatsion loyihalarni amalga oshirishda izchillik; rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini hamda investitsiyalash darajasini aniqlash. Bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish quyidagilarni talab qiladi:

- investitsiyalash jarayonida innovatsion jarayonning barcha ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish;
- investitsiyalarga talabi yuqori bo'lgan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi turizm tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish;
- turizm sohasini investitsiyalashda davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish;
- hududning turizm hamda innovatsion-investitsion salohiyatini baholash uchun axborot va reklama ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish.



Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududlarda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish orqali innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1. Hududlarda innovatsion rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida turizm sohasida investitsiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish. Hududlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash bozor noaniqligi va biznes risklari sharoitida amalga oshiriladigan mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirishning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, bozor munosabatlari harakatini tuzatuvchi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash innovatsion rivojlanish orqali hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi. Subsidiyalar va imtiyozlar berishda tarmoqlarga ustuvorlik berishning asosiy mezonini ichki talabni qondirish, import o'rnini bosish hamda xalqaro bozorga chiqishga yo'naltirilganlik bo'lishi lozim. Hududlardagi turizm ushbu mezonlarga to'liq javob beradi. Viloyatlarda ichki turizmning rivojlanishi xorijiy sayyohlik yo'nalishlarini ichki yo'nalishlar bilan almashtirishga, shu orqali turistik xizmatlar importini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Chet el turizmini rivojlantirish esa xalqaro bozorga chiqish, xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyalashuv, shuningdek, turizm xizmatlari eksportini oshirishni taqozo etadi. Turizm sohasini innovatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritish hududning investitsion-sarmoyaviy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

2. Turistik korxonalarga investitsiyalarni jalb etish va innovatsion faoliyatlarini rivojlantirishning maqsadli tizimini yaratish. Hozirgi vaqtda investitsiyalar bilan ta'minlash jarayonini faollashtirishda hududlarda turistik faoliyat, kichik va o'rta biznesni subsidiyalar bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi "2019–2025-yillarda hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning mintaqaviy maqsadli dasturi" amalga oshirilmoqda. Subsidiyalar quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- davlat kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar bo'yicha foizlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;
- lizing to'lovlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;
- lizing shartnomasini tuzishda birinchi to'lovni to'lash bo'yicha xarajatlarni qoplash;
- boshlang'ich kichik biznes subyektlariga grantlar berish.


Investitsiyalarning asosiy turlaridan biri hisoblangan subsidiyalar berish tashkilot faoliyatining mehmonxonalar va restoranlar faoliyati, yordamchi va qo'shimcha transport faoliyati, shuningdek, sayyohlik agentliklari faoliyati kabi turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Hududlardagi turistik korxonalarning innovatsion faolligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni investitsion va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi innovatsion faoliyatni ustuvor rag'batlantirishga yo'naltirilishi kerak. Investitsiyalashning asosiy turlaridan biri bo'lgan subsidiyalar berishda asosiy mezonlardan biri tashkilotning innovatsion faolligi darajasi bo'lishi lozim.

Ta'kidlaganimizdek, investitsiyalash jarayonini faollashtirishda turizm sohasidagi korxonalarning innovatsion faoliyati innovatsiyalarni yaratish, tarqatish va qo'llashdan iborat. Turistik korxonalarni innovatsion faollik ko'rsatkichi asosida subsidiyalash uchun tashkilotlar orasida innovatsion faoliyat bo'yicha eng istiqbolilarini, ya'ni eng yuqori innovatsion salohiyatga ega bo'lganlarini aniqlash imkonini beradigan aniq mezonlar tizimini ishlab chiqish zarur. Bunda quyidagi omillar hisobga olinishi kerak: ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarida innovatsion turistik tovarlar va xizmatlarning ulushi; yuqori malakali kadrlar mavjudligi; ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalar, konferensiyalar va boshqa ko'ngilochar ommaviy tadbirlarda ishtirok etish darajasi.

3. Turizm sohasida investitsiyalash jarayonini faollashtirish natijasida innovatsion rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni takomillashtirish. Mazkur mexanizmdan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan hududiy siyosatdagi loyihalarni amalga oshirishda tizimlilik va izchillikni ta'minlash lozim. Investitsiyalardan samarali foydalanish natijasida hududiy turizmni tizimli rivojlantirish, shuningdek, investitsion-innovatsion dasturlarni davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalangan holda ularni dasturiy bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm).

Hududlarda davlat-xususiy sheriklik dasturlarini amalga oshirishning ushbu ketma-ketligi hududlarning innovatsion imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradi, chunki: – investitsiyalash jarayonini faollashtirish natijasida turizmning moddiy bazasini yaratish, shuningdek, hududiy turizm mahsulotini ilgari surish bosqichlari ixtisoslashtirilgan bilim va ma'lumotlarga ega yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga asoslanadi; har bir keyingi bosqich oldingi bosqichda to'plangan bazadan foydalanadi, shu bilan birga barcha taklif etilayotgan bosqichlarda investitsion-innovatsion salohiyatni oshiradi.



1-rasm. Turizm sohasida DXSh ishtirokida investitsiya va innovatsiyaning integratsiya modelini amalga oshirish mexanizmi²

Bosqichlar ketma-ketligi tsiklik bo'lib, turli bosqichlarga oid loyihalar bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi mumkin, chunki mintaqada turli xil turizm turlari va hududlarning rivojlanishi notekis sodir bo'ladi.

4. Hududlarda investitsiyalarni faollashtirishda xo'jalik yuritishning xususiy va jamoaviy shakllarini yaratish, xususan, turizm sohasida ularning yaratilishi va faoliyat yuritishini tartibga soluvchi hududiy qonun hujjatlari tizimini ishlab chiqish zarur.

Turizm korxonalarining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari tavsiflanib, ularning qiyosiy tahlili olib boriladi hamda hududiy turizmni barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan asosiy kamchiliklar aniqlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, mulkchilikning jamoaviy shakllari hududiy turizmni barqaror rivojlantirish shartlariga to'liq mos kelishi aniqlandi. Hududlarda boshqaruvning jamoaviy shakllarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida quyidagilar zarur:

– jamoa korxonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



– boshqaruvning jamoaviy shakllarini rivojlantirish strategiyasi va dasturini ishlab chiqish, bu yangi ish o‘rinlarini yaratish, motivatsiya va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi hamda natijada mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi;

– subsidiyalar va soliq imtiyozlari berish orqali xo‘jalik yuritishning jamoaviy shakllarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini yaratish;

– jamoa mulki bo‘lgan korxonalarni tashkil etishda yuridik shaxslarga yuridik va konsalting yordamini ko‘rsatish.

5. Hududlarning turizm va investitsion-innovatsion imkoniyatini baholash uchun axborot va reklama tizimini takomillashtirish. Ushbu baholash tizimini to‘liq qo‘llash uchun hududlardagi viloyatlarning axborot va reklama tizimini takomillashtirish, turizm sohasini, shuningdek, turizm tashkilotlarining investitsion-innovatsion faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar doirasini kengaytirish zarur. Hududda turizm sohasini har tomonlama tavsiflovchi axborot va reklama hisob tizimining yetarli darajada mavjud emasligi tarmoq samaradorligini aniqlash va rivojlanish strategiyasini shakllantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda hududlardagi viloyatlarning axborot va reklama tizimida turizm sanoati tashkilotlarining innovatsion salohiyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar yetarli darajada emas.

Turizm sohasidagi hududlarning investitsion-innovatsion salohiyati darajasini baholash tizimida inson resurslarini tavsiflash uchun turizm kadrlarini tayyorlaydigan ta‘lim muassasalari soni ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkich bilvosita turizm sohasida band bo‘lgan oliy ma‘lumotli aholi sonini va hududlarda turizm sohasida band bo‘lganlarning umumiy sonini aks ettiradi. Shu bois, turizm sohasining kadrlar salohiyatini tavsiflash uchun turizm tashkilotlarida oliy ma‘lumotli xodimlar ulushini bevosita aks ettiruvchi ko‘rsatkichni joriy etish zarur.

Hududlarda turizm sohasidagi korxonalarning investitsion-innovatsion faoliyatini tavsiflash uchun turizm sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarning umumiy sonidagi innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turizm tashkilotlarining ulushi, turistik xizmatlar va tovarlarning umumiy hajmidagi ulushi, shuningdek, innovatsion xizmatlar ulushini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida hududlarda turizmning yangi turlarini joriy qilish orqali mahalliy va xorijiy turistlar uchun qo‘shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratish, turizm salohiyati yuqori hududlarda turistlar uchun xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mamlakatning siyosiy hayoti, davlat organlari va tashkilotlarining tarixi va faoliyatini aks ettiruvchi joylarga, xususan, hukumat bino va inshootlariga tashrif buyurishni o‘z ichiga olgan “Davlat-boshqaruv turizmi”ni rivojlantirish asosida obyektlar ro‘yxatini shakllantirish, ularga kirish-chiqish tartibini ishlab chiqish, pulli va bepul ko‘rsatiladigan xizmatlarni belgilash hamda tushayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha innovatsion usulga asoslangan takliflar ishlab chiqildi va asoslandi.

Turizm sohasini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligi franshiza shartnomasi asosida “Tourism Franchise Agreement” modelidan foydalanishning hamkorlik nuqtalarida investitsion loyihalarni rejalashtirish, ularning samaradorligining maqsadli mezonlarini aniqlash, turizm sohasini investitsiyalash darajalari, O‘zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etildi. Tadqiqot doirasida ilk bor “Tourism Franchise Agreement” modeli turizmni rivojlantirishning institutsional moliyalashtirish tizimi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu yondashuvda davlat subsidiyasi mexanizmi intellektual mulkka asoslangan franshiza munosabatlari bilan uyg‘unlashtirildi, milliy turizm faoliyati xalqaro brend standartlari va operatsion menejment tizimiga moslashtirildi. Natijada, turizm sohasidagi davlat qo‘llab-quvvatlovi faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash bilan cheklanmay, balki brend kapitali va xizmatlar sifatini boshqarish mexanizmiga aylantirildi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida faoliyat yurituvchi “Tourism Franchise Agreement” modeli iqtisodiy jihatdan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishning zamonaviy yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu modelda davlat tadbirkor uchun sarmoya xavfini kamaytirish, franshiza shartnomasi orqali xizmatlar standartlarini kafolatlash va subsidiyalar yordamida faoliyatni boshlash imkoniyatini yaratadi. Mazkur modelning xalqaro analoglari Turkiya, BAA, Fransiya va Singapur tajribalarida keng qo‘llaniladi. Ushbu mamlakatlar subsidiya va franshiza siyosatini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda turizm sohasida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga erishgan. Quyidagi jadvalda mazkur davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilingan.

1-jadvaldagi ma‘lumotlar xalqaro tajribada turizm sohasida transport, ovqatlanish xizmatlari va mehmonxona biznesi kabi yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlashda subsidiya va franshiza mexanizmlarining turli modellarini aks ettiradi. Turkiya misolida davlat investitsiya xarajatlarining 50 foizigacha qoplab berishi xizmatlar sohasida ichki va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. BAAda davlat bevosita moliyaviy mablag‘ ajratmaydi, biroq soliq imtiyozlari va yer ajratish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi. Fransiyada milliy brendlarni himoya qilish va grantlar ajratish orqali xizmatlar sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tajribasi esa moslashuvchan aralash model sifatida ajralib turadi — u davlat qo‘llab-quvvatlovi va xususiy sektor faolligini uyg‘unlashtiradi. Bu holat turizm sohasida transport, ovqatlanish xizmatlari va mehmonxona biznesi segmentlarida xalqaro investitsiya muhitini shakllantirishga xizmat qiladi [10].



1-jadval. Turizm sohasida transport, ovqatlanish xizmatlari, mehmonxona biznesi sektorlarida subsidiya va franshiza siyosati bo'yicha xalqaro tajriba qiyosiy tahlili³

Davlat	Subsidiya siyosati	Franshiza tizimi	Davlat ishtirok darajasi	Ilmiy xulosa
Turkiya	30–50% investitsiya xarajatlarini davlat tomonidan qoplash	Hilton, Accor franshizalari faol	Yarim davlat ishtirokida (PPP)	Subsidiya siyosati orqali mahalliy tadbirkorlar xalqaro brendlar bilan integratsiyalashgan
BAA (Dubay)	5 yillik soliq imtiyozlari va yer ajratish	Marriott, IHG, Rotana franshizalari keng	Davlat joy ajratadi, moliyalashtirmaydi	Imtiyozlar orqali xususiy kapital faollashgan
Fransiya	Turizm fondlari orqali grant va kreditlar	Louvre Hotels, Accor franshizasi yetakchi	Infratuzilma davlat mablag'idan	Milliy brendlar ustuvor, davlat qo'llab-quvvatlashi barqaror
O'zbekiston	3–5 yulduzli mehmonxonalar uchun 25 ming dollargacha subsidiya	TOP-50 brendlar yoki TOP-5 xalqaro tarmoqlaridan biri bilan franshiza shartnomasi	Davlat subsidiya va loyiha nazoratida	Aralash moliyalashtirish modeli barqaror iqtisodiy natija beradi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hududlarda turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning izchilligi va tizimligiga qat'iy rioya etish zarur. Bu, bir tomondan, mavjud investitsion resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda hududlarning mavjud salohiyatini oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtni optimal tarzda taqsimlash va amaliy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Shuningdek, turizm sohasini hududiy darajada rivojlantirishda investitsiya va innovatsiyalarni uyg'unlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish hamda zamonaviy raqamli va tashkiliy yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv hududlarda turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash orqali turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4910391>
- Keyns, Dj. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Antologiya ekonomicheskoy klassiki. T. 2. / Ingliz tilidan tarjima. – Moskva: Ekonomika, 1992.
- Makkonnell, Kembell R., Bryu, Stenli L. Ekonomika: prinsiplar, muammolar va siyosat. T. 2. / Ingliz tilidan tarjima. – Moskva: Respublika, 1992. – 200-b.
- Kukura, S.P. Teoriya korporativnogo upravleniya. – Moskva: Ekonomika, 2004. – 105-b. www.imepi-eurasia.ru
- Romanova, O.A. Teoriya i praktika razvitiya chastno-gosudarstvennogo partnerstva // Vestnik Uralskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. – 2007. – № 3. – 41-b.
- Safarov, B.Sh. "Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi DSc dissertatsiya. – Samarqand: SamISI, 2016. – 190 b.
- UNWTO. Tourism Development Outlook. – 2024; World Bank. Tourism Brand Index. – 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100